



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE TURKISTAN SUMMIT IN THE ACTIVITIES OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES

Sh. M. Murtazayeva

Independent Researcher (PhD)

University of World Economy and Diplomacy

Email: shodiya302@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkey, Uzbekistan, soft power, Organization of Turkic States, strategic cooperation, Central Asia, diplomacy, investment, Turkistan, artificial intelligence, globalization.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This article analyzes the role and significance of the Turkistan Summit within the framework of the Organization of Turkic States. The study examines the impact of the summit on the political and economic strategies of member states, as well as its role in strengthening mutual trust and regional integration. Furthermore, it explores the distinctive features of the Turkistan Summit, Uzbekistan's position and initiatives within this process, and analyzes the proposals put forward regarding the priority areas of cooperation among the member states.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI FAOLIYATIDA TURKISTON SAMMITINING O'RNI VA AHAMIYATI

Sh.M. Murtazayeva

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

shodiya302@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiya, O'zbekiston, yumshoq kuch, Turkiy davlatlar tashkiloti, strategik hamkorlik, Markaziy Osiyo, diplomatiya, investitsiya, Turkiston, sun'iy intellekt, globallashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqola Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Turkiston sammitining o'рни va ahamiyatini tahlil qilingan. Tadqiqotda sammitning a'zo davlatlar siyosiy hamda iqtisodiy strategiyalariga ta'siri, o'zaro ishonch va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishdagi roli

yoritilgan. Shuningdek, Turkiston sammitining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonning mazkur jarayondagi pozitsiyasi va tashabbuslari, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilgari surilgan takliflar tahlil etilgan.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО САММИТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ

Ш. М. Муртазаева

Независимый соискатель ученой степени PhD

Университет мировой экономики и дипломатии

E-mail: shodiya302@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Турция, Узбекистан, мягкая сила, Организация тюркских государств, стратегическое партнерство, Центральная Азия, дипломатия, инвестиции, Туркестан, искусственный интеллект, глобализация.	Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение Туркестанского саммита в рамках деятельности Организации тюркских государств. В исследовании рассматривается влияние саммита на политические и экономические стратегии государств-членов, а также его роль в укреплении взаимного доверия и региональной интеграции. Кроме того, раскрываются особенности Туркестанского саммита, позиция и инициативы Узбекистана в данном процессе, а также анализируются предложения, выдвинутые по приоритетным направлениям сотрудничества.
--	--

Kirish. Bugungi globallashuv va murakkab geosiyosiy jarayonlar sharoitida turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalasi har qachongidan ham dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Xususan, bu hamkorlikni rivojlantirishning muhim drayveri hisoblangan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) turkiy xalqlarni yagona tarixiy, madaniy va siyosiy makonda birlashtiruvchi muhim xalqaro tashkilot sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tuzilma doirasida o'tkazilayotgan sammitlar esa a'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqot, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishda katta o'rin tutadi. Ayniqsa, Turkiston shahrida o'tkazilgan norasmiy sammit turkiy dunyo birdamligini mustahkamlash, zamonaviy tahdidlarga birgalikda javob topish va kelajakdagi strategik yo'nalishlarni belgilashda muhim siyosiy maydonga aylandi. Ushbu maqolada Turkiston sammitining o'ziga xos jihatlari, xususan Turkiy

davlatlar tashkilotining ahamiyati hamda a'zo mamlakatlar o'rtasidagi strategik munosabatlarning rolini tahlil qilishdan iborat.

Muhokama va natijalar. Turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning boshlanishi 1992-yilda Turkiyaning Anqara shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining birinchi sammiti bilan bog'liqdir. Ushbu sammit yakunida Anqara deklaratsiyasi imzolanib, unda tashkilot doirasida asosiy maqsadlar belgilab qo'yilgan edi. Mazkur hujjatda turkiy dunyo jamiyatining yagona g'oya ostida birlashtirish muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zal o'z nutqida umumiy tarix va madaniyatga ega bo'lgan qardosh davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, hamda siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida birdamlikka chaqirgan edi [1]. Garchi tashkilotning asosi 1992-yilda barpo etilgan bo'lsada, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi haqiqiy hamkorlik 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxchivon shahrida o'tkazilgan sammitda yo'lga qo'yildi. Tashkilot Mazkur sammit davomida tashkilotning nomi "Turkiy Kengash" deb o'zgartirildi va Naxchivon bitimi imzolandi. Naxchivon bitimi kengashning asosiy maqsad va vazifalarini, tuzilmasini, tashkiliy shaklini, shuningdek, ichki va tashqi hamkorlik shartlarini belgilab bergan. 23 moddadan iborat va 7 sahifalik mazkur hujjat hozirgi kungacha tashkilotning tayanch hujjati sifatida o'z ahamiyati va muhimligini saqlab kelmoqda [2]. Tashkilotning asosiy maqsadi a'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda xalqaro maydonda o'zining nufuzi va ahamiyatini mustahkamlashdan iborat [3]. O'zbekiston mazkur tuzilmaga 2019-yil 15-oktabr kuni Bokuda bo'lib o'tgan TDTning yettinchi sammitida to'laqonli a'zo sifatida qabul qilinganligi bilan ahamiyatlidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu voqeani tabiiy va tarixiy jarayonligini e'tirof etdi hamda ushbu tashkilotning bir qismi bo'lish savdo aloqalarini yaxshilash va madaniy-gumanitar munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi [4].

Turkiston sammitining o'ziga xos jihatlari 2026 yil 15-may kuni Qozog'istonning qadimiy Turkiston shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti Qosim-Jo'mart To'qayev mezbonligida bo'lib o'tdi. Norasmiy maqomiga qaramay, ushbu uchrashuv global beqarorlik sharoitida hamjihatlik va o'zaro ishonchni namoyon etishi bilan ahamiyat kasb etdi. Kun tartibida savdo aloqalarini kengaytirish, energetika hamkorligi, transport yo'laklarini bog'lash, yirik strategik loyihalar hamda sun'iy intellekt kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Sammitning "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" mavzusiga bag'ishlangani alohida e'tiborni tortdi. Turkiy davlatlar tomonidan bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi va yangilari e'lon qilindi. Xususan, qo'shma sun'iy intellekt markazlarini tashkil etish, kiberxavfsizlik bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, BMT doirasidagi raqamli loyihalarni qo'shma tartibda amalga oshirish hamda turkiy

yoshlarga mo'ljallangan Sun'iy intellekt universitetini yaratish takliflari bildirildi. Bu tashabbuslar mintaqaning raqamli salohiyatini oshirish, texnologik integratsiyani jadallashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda [5]. Mazkur sammitning yana bir muhim jihati shundaki, amaliy tashrif bilan kelgan davlat rahbarlari o'rtasida alohida uchrashuvlar o'tkazildi va bu holat Turkiy davlatlar tashkilotining ahamiyatini yanada yuksaltirdi. Xususan, Turkiston - turkiy dunyoning ma'naviy poytaxtida bo'lib o'tgan norasmiy sammit arafasida Turkiya va Qozog'iston rahbarlari strategik sheriklikni chuqurlashtirish masalalarini muhokama etish maqsadida muloqot qildilar. Turkiya Prezidenti Recep Tayyip Erdoğan uchrashuv ahamiyatini alohida ta'kidlab, Qozog'istonda olib borilayotgan islohotlarga e'tibor qaratdi. U Qozog'iston dunyoning yetakchi xom neft eksportchilaridan biri ekanini eslatib, mazkur resurslarni Turkiya orqali jahon bozorlariga yanada katta hajmda yetkazib berish istiqbollari muhimligini qayd etdi. Shuningdek, Kaspiy mintaqasi orqali o'tuvchi Sharq – G'arb "O'rta yo'lak" - Buyuk Ipak yo'lining zamonaviy ko'rinishi - ahamiyati tobora ortib borayotgani, bu yo'lak imkoniyatlaridan nafaqat yuk tashishda, balki energiya resurslarini G'arbga yetkazishda ham kengroq foydalanish rejalashtirilayotganini bildirdi. Prezident Erdoğan Qozog'istonning moddiy va ma'naviy ko'magini doimo his etishini ta'kidladi. Xususan, 6-fevraldagi Turkiyadagi zilzila chog'ida qardosh mamlakat tomonidan ko'rsatilgan har tomonlama yordam uchun chuqur minnatdorlik izhor etdi. Shuningdek, Qosim-Jomart Toqayev topshirgan "Xoja Ahmad Yassaviy Nishoni" uchun samimiy tashakkur bildirib, bu mukofotni ikki davlat o'rtasidagi mustahkam birodarlikning yorqin timsoli sifatida yuksak faxr bilan qabul qilganini qayd etdi [6]. Shuningdek, Turkiya va Qozog'iston o'rtasida 13 ta hujjat imzolandi. Ushbu paket quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi: o'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish, madaniyat markazlarini tashkil etish, huquqiy masalalarda sud-huquqiy yordam ko'rsatish, qo'shma stipendiya dasturini yo'lga qo'yish, Qozog'istonda Turkish Maarif Foundation'ning ikki maktabini ochish, Almati xalqaro aeroportiga investitsiya kiritish, shifoxona qurilishlarini moliyalashtirish, neft konlariga xizmat ko'rsatishda hamkorlik qilish, neft va gaz loyihalarini birgalikda rivojlantirish hamda uchuvchisiz havo vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Mazkur bitimlar natijasida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ilm ta'lim almashinuvini kuchaytirishga xizmat qiladi [7].

Turkiston sammiti doirasida O'zbekiston rahbariyati ham a'zo davlatlarning rahbarlari bilan o'zaro uchrashuvlar tashkil etildi. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov uchrashdi. Mazkur muloqotda ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va keng qamrovli strategik hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Tomonlar sanoat, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi kabi ustuvor

yo'nalishlarda olib borilayotgan kooperatsiya loyihalarining izchil davom etayotgani, o'zaro savdo hajmi barqaror o'sayotgani va bu jarayonlar iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etdilar. Shuningdek, energetika hamda transport infratuzilmasi bo'yicha yirik mintaqaviy tashabbuslar, xususan "Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston" temir yo'lini qurish ishlarini jadallashtirish kabi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi boshqa muhim yo'nalishlarni ham ko'rib chiqib, yaqin muddatdagi oliy darajadagi tadbirlar rejasini muhokama qildilar [8]. Bundan tashqari, O'zbekiston hamda Turkiya yetakchilarining o'zro uchrashuvi ham sammitning ahamiyatini yanada oshirdi. Ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan muloqotda hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari muhokama qilindi. Yanvar oyida Anqarada bo'lib o'tgan O'zbekiston–Turkiya rasmiy uchrashuvi natijalari strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqqani alohida qayd etildi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalda ro'yobga chiqarish maqsadida ikki davlat vazirlik va idoralari o'rtasida yangicha hamkorlik mexanizmlari shakllantirilmoqda. O'zaro savdo hajmining o'sishi, qo'shma korxonalar sonining ko'payishi va mamlakatlar o'rtasidagi aviaqatnovlar tarmog'ining kengayishi shular jumlasidan. Shuningdek, turk kompaniyalarining O'zbekistonga kiritayotgan investitsiyalari hajmi ham izchil ortib borayotgani ham e'tiborga loyiqdir [9]. Yana bir e'tiborga molik jihat shuki, Turkiston shahriga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev bilan birga O'zbekiston tomonidan bunyod etilgan masjidni ko'zdan kechirdi. Islomiy va Sharq me'morchiligining eng yaxshi an'alariga tayangan holda qurilgan ushbu majmua milliy naqshlar, sharqona gumbazlar, baland minora yechimlari va zamonaviy qurilish texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda barpo etilgan. O'zbekiston tomonidan qardosh Qozog'iston xalqi va Turkiston aholisi uchun tuhfa sifatida bunyod etilgan mazkur masjid ikki davlat o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, madaniy yaqinlik va yaxshi qo'shnihilik rishtalarining yorqin timsoli sifatida namoyon bo'ldi [10]. Turkiston sammitida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida uchrashuv jahon miqyosida ziddiyatlar keskinlashgan, xalqaro munosabatlarda ishonch tanqisligi kuchaygan bir davrga to'g'ri kelayotganini ta'kidladi. Shunday sharoitda o'zaro muloqotni kuchaytirish va uyg'un pozitsiyalarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etishi qayd etildi. O'zbekiston davlat rahbari, so'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti xalqaro maydonda barqaror ravnaq topayotganini, xususan 2025-yilda a'zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshgani e'tiborga molik ko'rsatkich ekanini bildirdi. Shuningdek, Prezident Mirziyoyev bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi: sun'iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tarmog'ini shakllantirish, "Raqamli turkiy koridor" konsepsiyasini ishlab chiqish, Toshkentda TDT a'zo davlatlarining Texnologiyalar forumini o'tkazish, yoshlar startaplarini

moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan tuzilayotgan qo'shma venchur jamg'armasiga boshqa a'zo mamlakatlarni qo'shilishga chorlash, 2027 yilni turkiy dunyoda "Tabiatni asrash yili" deb e'lon qilish tashabbusi, kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo'yicha Turkiy alyansni tuzish kabi muhim takliflarni o'z ichiga oldi [11]. Bundan tashqari, yana bir muhim siyosiy jihat shuki, sammit norasmiy maqomda o'tganiga qaramay, davlat rahbarlari Turkiston deklaratsiyasini imzolab, hujjatni qabul qildilar. Mazkur deklaratsiya ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk va o'zbek tillarida rasmiylashtirildi. Ushbu hujjat sammit doirasida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish uchun asosiy siyosiy-huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi [12].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston sammiti bir necha jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etdi. Birinchidan, u turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi: xalqaro maydonda ishonch tanqisligi kuchayayotgan bir sharoitda turkiy dunyoning bir maydonda to'planishi uning siyosiy nufuzini sezilarli oshirdi. Ikkinchidan, sammit iqtisodiy, siyosiy va texnologik hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Xususan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yo'nalishidagi qo'shma tashabbuslar a'zo davlatlarning global raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, tadbir turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'naviy birlikni mustahkamladi: Turkiston shahrining "turkiy dunyoning ma'naviy poytaxti" sifatida e'tirof etilishi umumiy tarixiy ildiz va qadriyatlarning yaqqol tasdig'i bo'ldi. To'rtinchidan, sammit transport va logistika bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirdi; Markaziy Osiyo orqali o'tuvchi xalqaro transport yo'laklarini tizimli rivojlantirish masalalari ko'tarilib, ularning turkiy davlatlar uchun strategik ahamiyati yana bir bor ta'kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sapiyev, Y. (2021). Turkey and Turkic-Speaking States. *Anadolu Strateji Dergisi*, 3(2), 1-31. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/2290214>
2. Aydılek, E. (2022). Türk devletleri teşkilatının siyasi ve ekonomik potansiyeli. *Uluslararası Yönetim Akademisi Dergisi*, 5(3), 716-728. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/2722118>
3. Organization of Turkic States. (n.d.). Organization of Turkic States. <https://turkicstates.org/uz>
4. 15.10.2019 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/2939>

5. Nurmatov, S. (2026, May 19). Turkistondan yangi geosiyosiy signal: turkiy davlatlar yangi makon qurmoqchi. Daryo. <https://daryo.uz/2026/05/19/turkistondan-yangi-geosiyosiy-signal-turkiy-davlatlar-yangi-makon-qurmoqchi/>
6. Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı İletişim Başkanlığı. (2026, May 14). Cumhurbaşkanı Erdoğan, Kazakistan Cumhurbaşkanı Tokayev ile ortak basın toplantısında konuştu. <https://www.iletisim.gov.tr/turkce/haberler/detay/cumhurbaskani-erdogan-kazakistan-cumhurbaskani-tokayev-ile-ortak-basin-toplantisinda-konustu>
7. Yıldırım, Ö. (2026, May 14). Türkiye ile Kazakistan arasında 13 anlaşma imzalandı. Anadolu Ajansı. <https://www.aa.com.tr/tr/ekonomi/turkiye-ile-kazakistan-arasinda-13-anlasma-imzalandi/3937312>
8. UzDaily. (2026, May 28). O‘zbekiston va Qirg‘iziston rahbarlari mintaqaviy transport integratsiyasini rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/o%CA%BBzbekiston-va-qirg%CA%BBiziston-rahbarlari-mintaqaviy-transport-integratsiyasini-rivojlantirish-masalalarini-muhokama-qilishdi/>
9. UzDaily. (2026, May 28). Mirziyoyev va Erdo‘g‘an hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qilishdi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/mirziyoyev-va-erdogan-hamkorlikni-mustahkamlash-masalalarini-muhokama-qilishdi/>
10. UzDaily. (2026, May 28). O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari Turkistondagi yangi masjid bilan tanishdilar. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/o%CA%BBzbekiston-va-qozog%CA%BBiston-prezidentlari-turkistondagi-yangi-masjid-bilan-tanishdilar/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026, May 15). O‘zbekiston Prezidenti Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida qator tashabbuslarni ilgari surdi. <https://president.uz/oz/lists/view/9216>
12. Turkiy davlatlar tashkiloti. (2026, May). Turkiston deklaratsiyasi [PDF]. <https://turkicstates.org/u/declaration-uz.pdf>.